QORAQALPOQ VA QOZOQ XALQLARINING ÇARM HUNARMANDÇILIGI

Davletbayeva Nabira Kurbanbayevna,
I. V.Saviskiy nomidagi Qoraqalpoğiston davlat san'at muzeyi etnografiya bölimi ilmiy xodimi
DOI: 10.67620/yoshlarvailm.0340044

Annotatsiya. Maqolada qoraqalpoq va qozoq xalqlarining moddiy madaniyatida muhim örin tutgan çarm hunarmandçiligi masalalari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda çarmni oşlaş (iylaş)ning an'anaviy texnologiyalari, uslublari, uy-rözğor va ot anjomlarining turlari hamda ularning bezak xususiyatlari muzey eksponatlari va taniqli olim X.Arğınbayevning "Qazaq xalqınıń qol önerleri" kitobi asosida qiyosiy örganilgan.

Kalit sözlar: qoraqalpoq, qozoq, xalq, çarm, oşlaş (iylaş), uslub, *şınıqap*, *şanaş*, tebingi, j*ÿöen*.

Аннотация. В статье научно анализируются вопросы кожевенного ремесла, занимавшего важное место в материальной культуре каракалпакского и казахского народов. На основе музейных экспонатов и книги известного учёного Х. Аргынбаева «Қазақ халқының қол өнерлері» проводится сравнительный анализ традиционных технологий и способов обработки (дубления) кожи, видов бытовых предметов и конского снаряжения, а также особенностей их декоративного оформления.

Ключевые слова: каракалпакский народ, казахский народ, народное ремесло, кожа, обработка (дубление) кожи, технология, шыныкап, шанаш, тебинги, жүген.

Abstract. The article provides a scholarly analysis of leatherworking, which played an important role in the material culture of the Karakalpak and Kazakh peoples. Based on museum exhibits and the book Qazaq halqynyń qol ónerleri by the renowned scholar Kh. Argynbayev, the study offers a comparative examination of traditional leather-processing and tanning technologies, methods, types of household items and horse equipment, as well as their decorative features.

Keywords: Karakalpak people, Kazakh people, folk crafts, leather, leather processing (tanning), technology, shynyqap, shanash, tebing**i**, júgen.

Kiriş

Qoraqalpoq va qozoq xalqlari qadimdan Orol dengizining ikki tomonida yaşab kelib, Orol-Kaspiy oraliğidagi hududda özіga xos madaniy-tarixiy makonni şakllantirgan. Geografik yaqinlik, tabiiy-iqlim şaroitlarining umumiyligi hamda köp asrlik xöjalik aloqalari moddiy va ma'naviy madaniyatning öxşaş elementlari şakllanişiga xizmat qilgan. Tarixan mazkur xalqlar çorvaçilik, mavsumiy köçişlar va insonning daşt, çöl hamda Orolböyi hududlari tabiiy muhiti bilan uzviy boğliqligiga asoslangan köçmançi va yarim köçmançi turmuş tarzini özіga singdirgan.

Qoraqalpoq va qozoq xalqlarining madaniy identikligini şakllantirişda Orol-Kaspiy mintaqasi va Markaziy Osiyo hududida keçgan qadimgi etnik jarayonlar alohida ahamiyat kasb etgan. Qator an'analarning ildizlari milodiy eraning dastlabki asrlarida Oltoy, Orolböyi, Sirdaryo va Amudaryoning quyi oqimlarini öz içiga olgan keng Yevroosiyo daştlarida yaşagan qipçoq va öğuz doirasiga mansub ilk turkiy qabilalarga borib taqaladi. Migratsion jarayonlar, etnomadaniy aloqalar va köçmançi birlaşmalar örtasidagi özaro ta'sir öxşaş xöjalik şakllari, hunarmandçilik işlab çiqarişi va badiiy dunyoqaraşning şakllanişiga sabab bölgan. Natijada asrlar davomida turmuş tarzi, xöjalik amaliyoti va dunyoqaraş tasavvurlarining umumiyligiga asoslangan özaro yaqin madaniy muhit vujudga kelgan. Ikki xalq madaniyati rivojida Orol-Kaspiy oraliq hududining tabiiy şaroitlari muhim omil bölgan. Yarim çöl va daşt manzaralari, yoğoç resurslarining çeklanganligi, xöjalikning çorvaçilik va köçmançi turmuş tarziga boğliqligi tabiiy materiallar, ayniqsa jun, kiyiz va teridan keng foydalanişni taqozo etgan. Şu sababli ham çarm hunarmandçiligi qoraqalpoq va qozoq xalqlarida alohida taraqqiy etib, an'anaviy etnografik madaniyatning ajralmas qismiga aylangan. Teridan kundalik turmuş buyumlari, ot anjomlari, mahsulot saqlaş idişlari, safar jihozlari, kiyim-keçak va amaliy san'at elementlari tayyorlangan.

Adabiyotlar tahlili

Ikki xalqning çarm hunarmandçiligini qiyosiy örganiş şuni körsatadiki, naqş elementlari, buyum şakllari va terini işlaş usullarining köpçiligi umumiy tarixiy ildizlarga ega. Bu öxşaşliklar ot anjomlari, safar jihozlari, dekorativ naqşlar va terini işlaş texnologiyalarida yaqqol namoyon böladi. Şu bilan birga, har bir madaniyat etnik muhit, mintaqaviy an'analar va tarixiy rivojlaniş şaroitlari bilan boğliq öziga xos mahalliy xususiyatlarni saqlab qolgan. Bunday yondaşuv qoraqalpoq va qozoq xalqlarining moddiy madaniyatini alohida emas, balki Orol-Kaspiy mintaqasining yagona tarixiy-madaniy makonining bir qismi sifatida körib çiqiş imkonini beradi.

Har qanday xalqning moddiy madaniyati uning tarixiy taraqqiyoti, ijtimoiy hayoti va estetik qaraşlarini özida aks ettiradi. An'anaviy hunarmandçilik esa milliy merosning muhim tarkibiy qismi bölib, xalqning köp asrlik tajribasi, didi va bilimlarini namoyon qiladi. Markaziy Osiyoda yaşovçi qoraqalpoq va qozoq xalqlari hunarmandçiligida tabiiy materiallardan, ayniqsa, çarmdan foydalaniş keng tarqalgan bölib, bu ularning köçmançi va yarim köçmançi turmuş tarzi bilan bevosita boğliqdir. Bu maqolada qoraqalpoq va qozoq xalqlarining hunarmandçilik an'analarida muhim örin tutadigan çarm (teri)dan işlangan ayrim buyumlar haqida söz yuritiladi. Qoraqalpoq xalqining an'anaviy hunarmandçiligida çarmdan tayyorlangan turli xil rözğor va ot anjomlari alohida ahamiyatga ega. Bu buyumlar nafaqat kundalik turmuşda foydalanilgan, balki xalqning estetik qaraşlari, milliy uslubi va amaliy san'at an'analarini ham namoyon etgan. Şuningdek, maqolada qozoq xalqining çarmdan işlangan hunarmandçilik buyumlari ham yoritilgan, ularning şakli, bezak uslubi va qöllaniliş maqsadi qoraqalpoq xalqining çarm buyumlari bilan qiyosiy tarzda tahlil qilinadi. Masalan, har ikki xalqda ham çarmdan tayyorlangan ot anjomlari, qoplar, kamarbandlar, idişlar va turli uy rözğor buyumlari uçraydi. Biroq, ularning bezak naqşlari, işlov beriş uslublari va kompozitsiyasida milliy xususiyatlar namoyon böladi. Qoraqalpoq çarm buyumlarida

köproq geometrik va zoomorf naqşlar qöllansa, qozoq hunarmandçiligida ösimliksimon va zoomorf bezaklar ham keng tarqalgan.

Qoraqalpoq xalqining çarmdan işlangan san'at buyumlari kolleksiyasi I. V. Saviskiy muzeyining etnografiya bölimi fondida jamlangan bölib, bu yerda turli noyob eksponatlar saklanib Janubiy Orol buyi aholisining moddiy madaniyatini ўrganiş uçun eng muhim manbalaridan biri hisoblanadi. Uşbu eksponatlar orqali qoraqalpoq hunarmandlarining mahorati, materialga işlov beriş texnikasi va bezak an'analari yaqqol namoyon böladi. Şu bilan birga, qozoq xalqining çarmdan işlangan ayrim buyumlari bilan qiyosiy örganiş ikki xalqning madaniy yaqinligi, umumiy köçmançi turmuş tarzi hamda hunarmandçilik an'analaridagi öxşaş va farqli jihatlarni aniqlaş imkonini beradi. Şu tariqa, çarmdan işlangan buyumlar qoraqalpoq va qozoq xalqlarining moddiy madaniyatida muhim örin tutib, ularning tarixiy turmuş tarzi, estetik didi va amaliy san'at rivojini aks ettiradi. Maqolada uşbu buyumlar muzey kolleksiyalari va X. Arğınbayevning "Qazaq xalqınıң qol өneri" kitobida keltirilgan ilmiy tadqiqotlar asosida tahlil qilinib, ikki xalq hunarmandçiligi örtasidagi öxşaşlik va farqlar ilmiy jihatdan yoritib beriladi.

Muzey fondlarida çarmdan tayyorlangan turli xil buyumlar namoyiş etilgan: ot anjomlari elementlari, *tebingi, jүöen, şынıqaplar,* şanaşlar, *qamçi, kamarlar,* kundalik maişiy qoplar hamda XIX asr va XX asr boşlarida ustalar tomonidan tayyorlangan dekorativ buyumlar.

Uşbu eksponatlar qoraqalpoqlarda an'anaviy çarmçilik hunari yuqori darajada rivojlanganidan dalolat beradi. Bu hunar köp asrlik tabiiy materiallarni qayta işlaş tajribasiga, köçmançi va yarim köçmançi turmuş tarziga asoslangan. Etnograflar va muzey mutaxassislarining tadqiqotlari Orolböyi xalqlarida çarmni qayta işlaş texnologiyalari mintaqaning tabiiy-iqlim şaroitlari bilan çambarças boğliq holda şakllanganini körsatadi, çunki çorvaçilik xöjalikning asosiy tarmoqlaridan biri bölgan. A. Өtemisov ma'lumotlariga köra, çarm buyumlar nafaqat amaliy vazifani bajargan, balki murakkab bezak tizimiga ham ega bölgan bölib, unda bosma naqş, applikatsiya, öyma ornament va metall qöşimçalar qöllanilgan [2]. Çarm buyumlardagi ornament kompozitsiyalari köp hollarda geometrik, zoomorf va ösimliksimon motivlarni öz içiga olgan bölib, ular qadimgi turkiy köçmançi jamiyatlarning badiiy an'analariga borib taqaladi.

Ot anjomlariga tegişli *tebingi, jүöen va at kөzlik* kabi buyumlar alohida ilmiy qiziqiş uyğotadi, çunki ular foydali vazifa bilan badiiy bezakning uzviy boğliqligini yaqqol namoyon etadi. Muzey xodimi

A. Pirnazarovaning ta'kidlaşiça, qoraqalpoqlarda ot anjomi nafaqat ot minişni qulay qilgan (bezaklari bilan), balki egasining ijtimoiy mavqeini körsatuvçi va estetik madaniyatning muhim elementi bölgan [3]. Bosma naqşlar, metall qoplamalar, serdolik toşlari va ipak popuklardan foydalaniş ustalarning yuksak badiiy didga ega ekanini va xalq amaliy san'ati an'analarining barqarorligini tasdiqlaydi.

Şu bilan birga, qozoq xalqining çarm buyumlarini qiyosiy örganiş ikki xalq örtasidagi çuqur madaniy yaqinlikni oçib beradi. Bu yaqinlik Aral-Kaspiy oraliq mintaqasining umumiy tarixiy-madaniy makoni bilan izohlanadi. X.Arğınbayevning

tadqiqotlari körsatişiça, qozoq çarm hunarmandçiligining köplab elementlari qoraqalpoq buyumlari bilan öxşaş konstruktiv va ornamental xususiyatlarga ega. Bu öxşaşlik *kese qap* (şıpıqap) şakllari, tebingi, qamçi va boşqa ot anjomlarida yaqqol körinadi. Bunday parallellar nafaqat çorvaçilikka asoslangan köçmançi xöjalik şaroitlari, balki Markaziy Osiyo daştlari xalqlari örtasidagi uzoq davom etgan etnomadaniy aloqalar bilan ham izohlanadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Qoraqalpoq va qozoq xalqlarida çarmni işlaş texnologiyalari öxşaşdir. Ikkala xalq ham tabiiy açitiş usuli, sut kislotali eritmalar, dudlaş va yoğ bilan işlov beriş usullaridan foydalangan bölib, bu çarmga mustahkamlik, elastiklik va namlikka çidamlilik bergan. Şu bilan birga, qiyosiy tahlil ayrim mahalliy xususiyatlarni ham körsatadi. Şu tariqa, çarmdan tayyorlangan buyumlar qoraqalpoq va qozoq xalqlarining moddiy madaniyatida muhim örin tutadi. Ular xalqlarning tarixiy turmuş tarzi, xöjalik faoliyati, estetik qaraşlari va badiiy an'analarini aks ettiradi. Muzey kolleksiyalarini tahlil qiliş mazkur buyumlarni nafaqat amaliy-badiiy san'at namunalari sifatida, balki Markaziy Osiyo xalqlarining madaniy an'analari vorisiyligini tasdiqlovçi muhim tarixiy-etnografik manbalar sifatida ham körib çiqiş imkonini beradi. Ilmiy nuqtai nazardan qiyosiy tadqiqot çarm hunarmandçiligi orqali madaniy özaro ta'sir, an'analar transformatsiyasi va mintaqaning yagona tarixiy-madaniy makoni şakllaniş jarayonlarini çuqurroq anglaşga xizmat qiladi.

Har bir xalqning özига xos va muayyan darajada san'ati bölgan. Çunki xalqning yaşaş şaroiti va an'analari özига xos san'atni taqoza etgan. Qoraqalpoqlarda terini iylaş uslubi oddiy bölgan va u Örta Osiyo xalqlarining uslubidan kam farq qilgan. Terini oşlaş uçun uni oqar suvga bir neça kun davomida solib qöyiladi va ustki tomoni jun qoldiqlaridan yaxşilab tozalanadi. Söngra terining içki tomoni qirği yordami bilan ikkinçi marta tozalanadi, yana suvga solib olinadi va quritiladi. Şundan keyin oddiy peç tutinida bir neça kun (sutka) davomida dudlanadi hamda içki va taşqi tomoniga yupqa qilib yoğ surtiladi. Natijada suv ötmaydigan va namlanmaydigan teri hosil böladi. Terini iylab tayyorlaş uçun uzunligi 120-140 santimetrli yoğoç taxta, göşt piçoği, jun piçoği, yoğoç tayanç, yoğoç nov, belça, töqmoq, dudlaş uçun peç va boşqa asboblar işlatiladi. Bu qurollarni mahalliy temirçi va duradgorlar yasagan. Iylangan teridan qoraqalpoqlar egarni qoplaşda, otning egar-jabduqlarini, qayişlarni hamda çinni kosalarni saqlaydigan idişlarni (şıpıqap) işlaş uçun foydalanadi. Qozoq xalqida ham teri qoplar, idişlar, kamarlar, ot anjomlari va boşqa turli rözğor buyumlari teridan quyidagi uslubda yasalgan. Bunday buyumlar xalq turmuşida keng qöllanilgani bois, teriga işlov beriş bilan şuğullanadigan ustalar ham jamiyatda alohida öringa ega bölgan. El orasida şu kasb bilan maxsus maşğul bölib, teri oşlaş va uni tayyor mahsulotga aylantirişni öz hunarida köllagan kişilar kam bölmagan. Mol terisini iylaşning xalq orasida keng tarqalgan bir neça usullari mavjud bölib, ulardan eng köp uçraydiganlaridan biri maxsus tabiiy açitiş usuli hisoblanadi. Bu uslubda teriga avvaldan tayyorlangan eritmada işlov beriş orqali yumşatiş va mustahkamlaş amalga oşirilgan. Odatda buning uçun yoğoçdan yasalgan köza yoki boşqa keng oğizli yoğoç idişlardan foydalanilgan. Idiş içiga ayranning sariq suvi, açitilgan sut mahsulotlari, un kepagi va tuz qöşilib,

tabiiy ravişda açitilgan maxsus aralaşma tayyorlangan. Keyin esa tozalangan teri uşbu eritmaga solinib, ma'lum vaqt davomida qoldirilgan. Bu jarayon terining tabiiy ravişda yumşaşi, mustahkamlanişi va keyingi işlov beriş uçun tayyor holga kelişiga xizmat qilgan. Şu tarzda tayyorlangan teri keyinçalik quritilib, qayta işlanib, turli xil kiyim-keçaklar va maişiy buyumlar tayyorlaşda keng qöllanilgan. Bunday an'anaviy usullar qozoq xalqining asrlar davomida şakllangan hunarmandçilik tajribasini va tabiiy resurslaridan oqilona foydalaniş madaniyatini yaqqol namoyon etadi.

Qozoqlarda köp bölimli *"kese qap"lar* keng tarqalgan bölsa, qoraqalpoqlarda köproq yakka holdagi *"şынықap"lar* uçraydi. Ornament kompozitsiyasida ham farqlar mavjud: qoraqalpoq ustalari köproq geometrik qat'iy şakllarga e'tibor qaratgan bölsa, qozoq hunarmandlari ösimliksimon va zoomorf motivlardan faol foydalangan.

Şы*nықap* deb nomlangan buyum qoraqalpoqlarda qay vaqtdan boşlab tikila boşlagani va qullangani hozirça noma'lum. XIX asrning 70- yillari örtalarida rus ofitseri A. P. Xoraçkin askarlarining kiçkina çarm qopda xitoy çinni kosasini olib yurganini köp marta payqagan, rus askarlari undan suv içişgan. Şы*nықap* qattiq teridan tikiladi, jigarrang bўlib, yölga çiqqanda otning egariga osib qöyiladigan, kosa solişga möljallangan idişdir. Körinişi uşlaşga va egarga boğlab qöyişga moslaştirilgan ikki bölakdan iborat. Yuqori tomoni yarim şar şaklida bölib, beş dona uçburçak teri bölagi sarğiş rangdagi yöğon ip bilan biriktirib tikilgan. Har bir bölagining içiga mayda mis bölaklaridan va ingiçka simdan geometrik şakldagi naqşlar solingan. Pastki qismi tekis şaklda bölib, u qopqoği vazifasini bajaradi, tutqiçi esa uzunçoq körinişda böladi. Uşbu san'at asarida ustaning mehnati va mahorati yaqqol namoyon bölgan. [2].

Teridan işlangan uşbu badiiy san'at asari qozoq xalqining kundalik hayoti va safar bobida ajralmas hisoblangan an'anaviy çarm buyumi *"kese qap"* (kosa qop) qoraqalpoq xalqida *"şынықap'* dep ataladi va u kosa idişlar uçun möljallangan buyum hisoblanadi. Uşbu buyum köçmançilik turmuş tarzida çinni kosalarni xavfsiz taşiş va saqlaş uçun xizmat qiladi. Ilmiy jihatdan qiyoslab qaraganimizda, qozoq xalqida kosa qopining ikki xil turi mavjudligini köramiz. Taniqli olim X. Arğынbayevning "Qazaq xalqының qol өnerleri" kitobida keltirilgan rasmlarda bir donali va uçtasi birlaşib tikilgan kosa qoplarni körişimiz mumkin, Buyumlar bezagida xalq amaliy san'atiga xos geometrik ornamental uslub qöllanilgan. Naqşlar markaziy simmetriya asosida tuzilgan bölib, uçburçak motivlarining uyğunligi buyumga nafislik va milliy öziga xoslik bağişlaydi. [4]

Ammo qoraqalpoq xalqining amaliy san'atida bunday uç qismli, ya'ni bir neçta kosa qoplarini birlaştirib tikiş amaliyoti deyarli uçramaydi. Buyumlar odatda qalin va puxta işlangan mol terisidan tayyorlanib, idiş şakliga moslab yarim şarsimon körinişda tikilgan bölib va ularning bezatilişida qozoq xalq amaliy san'atining klassik elementlari qöllanilgan. Buyumning markaziy qismida aylana şaklida kompozitsiyalangan geometrik çiziqlar mavjud. Naqşlar çarm ustiga "bosma" uslubida tuşirilgan bölib, ular idişga qattiqlik va qöşimça himoya qatlamini beradi. Çarmning elastikligi va mustahkamligi içidagi nozik çinni kosalarni nafaqat himoya qilgan, balki ularni çang va kirdan ham asragan, bu esa ayniqsa köçiş va safarlar davomida muhim bölgan. Bunday buyumlar qozoq xalqining mehmondöstligi bilan boğliq hisoblanadi. Qimmatbaho

çinni kosalar oila boyligi hisoblangan va ularni mana şunday bezatilgan çarm kosa qoplarda asraş an'ana bölgan.

Teridan işlangan yana bir naqşli rözğor buyumlaridan biri *"Şanaş"* deb nomlanadi va u buzoq terisidan yaxlit qilib tikiladi. Uzunligi 90-92 sm, uzunçoq oğiz yuzasi ingiçka, pastki qismi biroz kengaygan bölib, har xil rangdagi ipak iplar bilan tikilib, uçi popuklangan va ilmak şaklida ötovning çap qismiga, *keregening* boşiga ilib qöyilgan. Şanaşga tariq, moş, lobiya, makkajöxori va un kabi quruq ozuq-ovqat narsalar solinadi. Şanaşning ust qismi, yuz tomoni namuna böyiça qiyib olingan yupqa teri yoki gazlama bulaklari yopiştirib (applikatsiya) tikiş yöli bilan bezatilgan. Naqşlari köpinça uçlari şoxlanib kelgan atanaqlardan iborat.[1].

*J*γöen ot anjomlarining eng asosiylaridan biri hisoblanadi. Uning barça qismlari oq metall bezaklar bilan bezatilgan. *J*γöen *"aylansoq"* (aylana şaklidagi) orqali ötkazib işlangan ikki bölak temirdan iborat böladi. *J*γöenning tugun bölib tutaşadigan joyining orqa tomoni yumaloq simdan, old qismi esa uzukka öxşagan yirik aqiq toşi örnatilgan qoşidan iborat bölib, uning atrofi oçilgan gul körinişida bezatiladi, buni "*j*γöen *qas*" deb ataydilar va ular uz ora çarm boğişlar bilan biriktiriladi. Ya'ni, *j*γöen orqali ot egasi tomonidan boşqariladi: *j*γöenning teridan yasalgan boğiçining öng tomoni tortilsa, ot öngga buriladi va çap tomoni tortilsa çapga buriladi. *J*γöen kuç bilan tortilsa, ot töxtaydi demak, u boşqariş vositasi (rul) bölib xizmat qiladi. [3].

Ot bezaklaridan yana biri *at kəzlik* bölib, uning ham teridan yasalgan turi mavjud. Teridan işlangan *at kəzlikning* pastki qismi maydalab tilinib, popuk körinişini hosil qiladi; ikkinçi turi esa aralaş rangdagi jun iplardan naqşlanib töqiladi, uning ham pastki tomoni popukli böladi. Bu popuklar birinçidan, çiroyli köriniş hosil qilsa, ikkinçidan, otning közini çivindan himoya qiladi.

A. Pirnazarovaning ta'kidlaşiça, ot bezaklaridan yana biri *jona (egarning tagiga solinadigan buyum)* bölib, körinişi jihatidan egarga öxşaydi, teridan va kigizdan tikib işlanadi, qir atrofi ipak popuklar bilan bezatiladi. Terining ustiga öyma naqş solinadi. Bu otning orqasiga egar botmasligi uçun va çiroyli köriniş hosil qiliş uçun qöllaniladi. *Egarning* ikki tomoniga, taqimning ostiga osiladigan ot bezagi *tebingi* bölib, u yaxşi iylangan qalin teridan işlanadi. Ikki tomonga taqiladigan bölganligi uçun öyma naqşlari bir xil, juft bölib işlanadi. *Tebingi* naqşli egarning ikki çetiga yaraşib çiroy beriş bilan birga, ustidagi odamning oyoğini tepsinib, otni qattiq haydagan vaqtda uning biqiniga zarar yetkazmasligini ham ta'minlaydi. Qoraqalpoq xalqiga tegişli *tebingilarning* köpçiligi yuz tomonlari zoomorf va ösimliksimon naqşlar bilan bezatilgan. *Egarning* boşiga osib qöyiladigan, teridan bir neça örim qilib işlangan çiroyli ot anjomi *qamçi* hisoblanadi. Uning "tört örim", "olti örim", "sakkiz örim" turlari bölib, u buzoq terisidan ingiçka qilib, çiroyli örib yasaladi. Köpinça qamçining sopi naqşlanib, mayda toşlar bilan bezatib ham işlanadi. Qamçi otni yölga solib, yönaliş berib turadigan eng kerakli buyumlardan biri hisoblanadi.

Şuningdek, turli hayvon terilarini qayta işlaş qozoq xalqining an'anaviy turmuş tarzida ham azaldan muhim örin egallab kelgan. Buning boisi, avvalo, qozoqlarning köçmançi hayot tarzi va çorvaçilik bilan uzviy boğliq hayot keçirgani bilan izohlanadi. Inqilobgaça bölgan davrda qozoq xalqi öz qöli bilan işlov berilgan mol va boşqa hayvon

terilaridan turli xil kiyim-keçaklar tikib kiygan. Qişning sovuq iqlimiga mos ravişda tayyorlangan bunday kiyimlar çidamliligi va issiqni yaxşi saqlaşi bilan qadrlangan. Şu bilan birga, terilar faqatgina kiyim tikişda emas, balki maişiy buyumlar tayyorlaşda ham keng qöllangan. Qozoq xalqi ustalari özlari işlov bergan yoki bozordan sotib olgan turli xil teri turlaridan rözğorda işlatiladigan köplab buyumlarni yasagan.

Tahlil va natijalar

Quyida biz ikki xalqning çarmdan işlangan ayrim buyumlari öxşaşligini taqqoslaşni davom ettirib, X. Arğınbayevning "Qazaq xalqınıñ qol öneri" kitobida keltirilgan tebingining rasmi böyiça tavsif berib ötamiz. Qozoq xalqining an'anaviy ot-abzallari tarkibiga kiruvçi muhim qism – *tebingi* bölib hisoblanadi. Tasvirdagi *tebingi* qozoq xalqi amaliy san'atiga xos bölgan yuksak did bilan işlangan buyumdir. Tebingining markaziy qismi alohida törtburçakli ramkaga olingan bölib, uning içi zoomorf va ösimliksimon naqşlar bilan bezatilgan. Uni jilvakor qilib körsatadigan asosiy jihat uning yuz qismidagi murakkab öyğunlikka ega bölgan naqşlardir. Tebingining pastki qismi biroz kengroq va qayrilgan şaklda ekanini köriş mumkin.[4]

Qozoq va qoraqalpoq xalqlari *tebingilaridagi* bunday öxşaşliklar çarmdan buyum yasovçi hunarmandlarning naqşlarni hayvonot dunyosi, tabiat, ya'ni ösimliklar olami belgilaridan qabul qilişda ham, qöllaşda ham bir-biriga yaqin ekanligini dalillaydi. Uşbu tadqiqotda qozoq xalqining moddiy madaniyatini çuqur örgangan taniqli olim X.Arğınbayevning "Qazaq xalqınıñ qol önerleri" kitobi asosida ilmiy ma'lumotlarga tayanib, qozoq xalqiga xos ot-anjomlaridan biri bölgan tebingini qoraqalpoq xalqiga tegişli tebingi bilan qiyosiy tahlil qilişni maqsad qildik. Qozoq xalqiga tegişli tebingi törtburçak şaklga ega bölib, pastki qismi biroz çözilgan. I.V.Saviskiy nomidagi muzeyning etnografiya bölimi fondida saqlanayotgan, qoraqalpoq hunarmandlari tomonidan işlanib KP-5647 va KP-5648 raqamlari bilan röyxatdan ötgan tebingilarni qiyoslaganimizda ularning umumiy körinişi töğri tört burçak şaklida ekanligi va bir-biriga umumiy darajada deyarli öxşaşligi aniqlandi.

Xulosa

Qozoq va qoraqalpoq xalqlarining an'anaviy çarm buyumlari *kese qap* (kosa qop) va tebingi qiyosiy tahlil qilindi. Tahlil natijasida ikkala xalqning çarm buyumlari bir-biriga yaqin bölsa-da, ular orasida farqlar mavjudligi aniqlandi. Xususan, qozoq xalqida *kesa qapning* bir donali va uç qismli turlari uçrasa, qoraqalpoq xalqining amaliy san'atida köp qismli şıpıqap yasaş an'anasi deyarli kuzatilmaydi. Şu bilan birga, ot anjomlaridan biri (*tebingi*)ni qiyosiy tahlil qiliş natijasida ular örtasidagi öxşaşliklar nafaqat şakl va tuzilişida, balki naqşlar mazmunida ham namoyon bölişi aniqlandi. Şuningdek, X.Arğınbayevning ilmiy ma'lumotlariga tayangan holda olib borilgan izlanişlar tebingining nafaqat amaliy, balki estetik ahamiyati ham yuqori ekanini körsatadi. Bu esa ikki xalq örtasidagi madaniy yaqinlikni, tabiat va hayvonot olami obrazlarini badiiy talqin qilişdagi umumiy an'analarni tasdiqlaydi.

Demak, qoraqalpoq va qozoq hunarmandlarining tabiat gözalligini köriş va tuşuniş qobiliyati yaşaş joyi boşqa boşqa bölişidan qat'i nazar öz san'at asarlarida naqş va bezak şaklida bir xil ohang va uyğunlikda namoyon etgani bejiz emas. Şunki, quyoş nurlari, musaffo osmon, atrof-muhit gözalligini insonlar içki tuyğu bilan ifodalab,

ajoyib san’at asarlarini yaratadi. Bu qadimiy meros - bugungi kunda unutilib borayotgan estetik idrokni qayta uyğotiş, kelajak avlod uçun esa abadiy namuna böladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Allamuratov A. Mәңgi mийras. Nukus: Bilim, 1993.
2. Ötemisov A. Qaraqalpaqlardıń óner-kásipleri. Nukus: Qoraqalpoğiston, 1991.
3. Pirnazarova A. “Qaraqalpaqlardıń óner-kásipleri”. Amudaryo, 2021.
4. Arğinbayev X. Qazaq halqınıń qol óneri. Almati: Öner, 1987.
5. Qoraqalpog‘iston Respublikasi I. V. Savitskiy nomidagi davlat san’at muzeyi. Etnografiya bo‘limi fondining arxiv materiallari. Nukus.